

REZERVGA BO'SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILAR REINTEGRATSIYASI
INDEKSLARINING PSIXOSOTSIAL KORRELYATLARI: XORIJIY TADQIQOTLAR
TAHLILI

Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrası
boshlig'ining o'rinbosari, p.f.f.d.(PhD), dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20660861>

Annotatsiya. Mazkur maqolada rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga qayta moslashuvi jarayonida reintegratsiya indekslarining psixosotsial korrelyatlari xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda reintegratsiya shaxsning faqat individual psixologik moslashuvi emas, balki oilaviy tizim, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy bandlik, fuqarolik identifikatsiyasi, psixologik moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik va ijtimoiy kapital bilan bog'liq ko'p darajali jarayon sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: reintegratsiya, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar, faxriylar, psixosotsial korrelyatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy tizim, harbiy identiklik, psixologik moslashuvchanlik, kasbiy adaptatsiya.

ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЕ КОРРЕЛЯТЫ ИНДЕКСОВ РЕИНТЕГРАЦИИ
ВОЕННОСЛУЖАЩИХ, УВОЛЕННЫХ В ЗАПАС: АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. В данной статье на основе зарубежных научных исследований анализируются психосоциальные корреляты индексов реинтеграции военнослужащих, уволенных в запас, в процессе их повторной адаптации к гражданской жизни. В исследованиях реинтеграция интерпретируется не просто как индивидуально-психологическая адаптация личности, а как многоуровневый процесс, связанный с семейной системой, социальной поддержкой, профессиональной занятостью, гражданской идентификацией, психологической гибкостью, стрессоустойчивостью и социальным капиталом.

Ключевые слова: реинтеграция; военнослужащие, уволенные в запас; ветераны; психосоциальные корреляты; социальная поддержка; семейная система; военная идентичность; психологическая гибкость; профессиональная адаптация.

PSYCHOSOCIAL CORRELATES OF REINTEGRATION INDEXES OF MILITARY
PERSONNEL DISCHARGED INTO THE RESERVE: AN ANALYSIS OF FOREIGN
RESEARCH

Abstract. Based on foreign scientific studies, this article analyzes the psychosocial correlates of reintegration indexes among military personnel discharged into the reserve during their readjustment to civilian life. In these studies, reintegration is interpreted not merely as an individual's psychological adaptation, but as a multilevel process interconnected with the family system, social support, professional employment, civic identification, psychological flexibility, stress resilience, and social capital.

Keywords: *reintegration, military personnel discharged into the reserve, veterans, psychosocial correlates, social support, family system, military identity, psychological flexibility, professional adaptation.*

Kirish. Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilgan shaxsning fuqarolik hayotiga qayta kirib borishi murakkab psixologik, ijtimoiy va kasbiy transformatsiya jarayoni hisoblanadi. Harbiy xizmat davomida shakllangan intizom, subordinatsiya, jamoaviy mas'uliyat, xavfga tayyorlik va qat'iy rollar tizimi fuqarolik hayotidagi erkin, ko'p variantli va individual tashabbusga asoslangan ijtimoiy muhit bilan to'qnashadi. Shu sababli reintegratsiya jarayoni oddiy moslashuv emas, balki shaxsning hayotiy pozitsiyasi, identifikatsiyasi, oilaviy roli, kasbiy maqomi va ijtimoiy aloqalarini qayta tashkil etuvchi murakkab psixosotsial hodisa sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tadqiqotlarda reintegratsiya tushunchasi "community reintegration", "civilian transition", "post-service adjustment", "military-to-civilian transition" kabi kategoriyalar orqali o'rganiladi. Mazkur yondashuvlarda asosiy e'tibor shaxsning fuqarolik hayotiga funksional qaytishi, oilaviy va ijtimoiy rollarni tiklashi, yangi kasbiy faoliyatga moslashishi, ruhiy salomatlikni saqlashi hamda jamiyat bilan qayta integratsiyalashuviga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan reintegratsiya indeksleri shaxsning ijtimoiy faolligi, psixologik farovonligi, oilaviy barqarorligi, kasbiy bandligi va fuqarolik identifikatsiyasi darajasini ifodalovchi kompleks ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

C.A. Elnitsky va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan ekologik model [1] reintegratsiyani individual darajadagi muammo bilan cheklamaydi. Mazkur modelga ko'ra, harbiy xizmatchining fuqarolik hayotiga qaytishi individual, interpersonal, tashkilot va jamiyat darajalarida kechuvchi o'zaro bog'liq jarayondir. Bu yondashuv reintegratsiya indekslarini baholashda faqat travmatik tajriba yoki ruhiy simptomlarni emas, balki oila, jamoa, xizmatdan keyingi kasbiy yo'nalish, ijtimoiy institutlar va davlat qo'llab-quvvatlashi kabi keng doiradagi omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchining moslashuvini shaxs va muhit o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir natijasi sifatida izohlaydi. Harbiy xizmatdan keyingi hayotda shaxsning psixologik barqarorligi uning ichki resurslari bilan bir qatorda tashqi ijtimoiy resurslarning mavjudligi, ulardan foydalanish imkoniyati va ular bilan o'zaro munosabat sifati orqali belgilanadi.

Romaniuk tomonidan ishlab chiqilgan psixologik va madaniy reintegratsiya yondashuvi [2, 3] esa fuqarolik hayotiga qaytishni madaniy moslashuv jarayoni sifatida baholaydi. Harbiy madaniyatdan fuqarolik madaniyatiga o'tish jarayonida shaxs qadriyatlar, kommunikatsiya uslubi, kasbiy rol, ijtimoiy kutishlar va hayotiy maqsadlarni qayta ko'rib chiqadi. Demak, reintegratsiya indeksleri nafaqat tashqi ijtimoiy moslashuv, balki ichki identifikatsion qayta qurilish darajasini ham aks ettiradi.

Xorijiy tadqiqotlarda psixologik moslashuvchanlik faxriylarning fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli qaytishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi [4, 5, 6].

Psixologik moslashuvchanlik shaxsning yangi sharoitlarni qabul qilishi, o'z xatti-harakatlarini vaziyatga mos ravishda qayta tashkil etishi, noaniqlik holatida barqaror qaror qabul qilishi va yangi ijtimoiy rollarni egallash qobiliyatini anglatadi.

Harbiy xizmat davomida shaxs qat'iy tartib, buyruqbozlik tizimi va aniq vazifalar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolik hayotida esa rollar ancha moslashuvchan, qarorlar mustaqil, ijtimoiy talablar esa ko'p variantli bo'ladi. Shu sababli psixologik moslashuvchanlik past bo'lgan faxriylarda noaniqlikka chidamsizlik, ijtimoiy begonalashuv, kasbiy yo'nalishda ikkilanish va oilaviy munosabatlarda keskinlik kuzatilishi mumkin. Aksincha, moslashuvchanlik yuqori bo'lgan shaxslarda reintegratsiya indeksleri yuqoriroq namoyon bo'ladi.

Bu jihatdan psixologik moslashuvchanlik reintegratsiyaning nafaqat individual, balki tizimli korrelyati hisoblanadi. Chunki u shaxsning oila, kasb, jamiyat va fuqarolik qadriyatlari bilan qayta integratsiyalashuvini ta'minlovchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi.

Reintegratsiya indekslarining eng muhim psixosotsial korrelyatlaridan biri ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdir. Xorijiy tadqiqotlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash emotsional, instrumental, informatsion va baholovchi yordam shakllarida tahlil qilinadi. Faxriy uchun oila a'zolari, do'stlar, sobiq xizmatdoshlar, mahalliy hamjamiyat va ijtimoiy institutlar tomonidan ko'rsatiladigan yordam fuqarolik hayotiga moslashuvni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning psixologik ahamiyati shundaki, u yolg'izlik, begonalashuv, ishonchsizlik va maqsadsizlik hissini kamaytiradi. Harbiy xizmatdan keyin shaxs avvalgi jamoaviy mansublik muhitidan ajraladi. Agar ushbu bo'shliq yangi ijtimoiy aloqalar bilan to'ldirilmasa, reintegratsiya jarayoni murakkablashadi. Shu bois faxriylarning jamiyat bilan faol aloqada bo'lishi, ijtimoiy institutlarga ishonchi va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi reintegratsiya indekslarining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ijtimoiy kapital nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, faxriylarning barqaror ijtimoiy tarmoqlarga ega bo'lishi ularning psixologik farovonligini oshiradi. Ijtimoiy kapital yuqori bo'lgan shaxslar ish topish, huquqiy maslahat olish, psixologik yordamga murojaat qilish, yangi kasbiy muhitga kirish va oilaviy muammolarni bartaraf etishda ko'proq resurslarga ega bo'ladilar.

Harbiy xizmatchilar reintegratsiyasida oilaviy tizim alohida ahamiyatga ega. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy birdamlik, nikohdan qoniqish, turmush o'rtog'ining emotsional qo'llab-quvvatlashi, farzandlar bilan iliq munosabatlar va oilaviy rollarning muvozanatli taqsimlanishi reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Minnesota universiteti tadqiqotchilari M.D. Sherman, K.R. Hawkey va L.M. Borden (2015) tomonidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning oilaviy va ijtimoiy hayotga qayta integratsiyalashuvi (reintegratsiya) faqat individual xarakterda bo'lmay, balki oila a'zolarining ruhiy holati va tizimli rollar transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotchilar xizmatdan qaytgan shaxslarda dastlabki 3–6 oy davomida depressiya, uyqu buzilishi, oilaviy munosabatlar sifatining pasayishi va kasbiy dezadaptatsiya kabi psixosotsial o'zgarishlar kuzatilishini, ayniqsa, posttravmatik stress buzilishi (PTSD) bo'lgan respondentlarda

oilada ichidagi zo'raonlik va begonalashuv xavfi keskin ortishini empirik ma'lumotlar asosida isbotlaganlar [7].

Xorijiy olimlarning ushbu xulosalari bizning tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular reintegratsiya jarayonini faqat harbiy xizmatchining ichki ruhiy holati emas, balki atrof-muhit va oilaviy kognitiv moslashuvchanlik kabi **“psixosotsial korrelyatlar”** tizimi orqali baholashni taqozo etadi. AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, sobiq harbiylarning fuqarolik hayotida o'z o'rnini topishi, ularning moliyaviy savodxonligi va yangi ijtimoiy-kasbiy rollarga moslashishi tizimli va majmuaviy ruhiy ko'makni talab qiladigan ko'p faktorli integratsion fenomendir.

Harbiy xizmatdan qaytgan shaxs oilada avvalgi rolini tiklashga yoki yangi sharoitga mos oilaviy rolga egallashga majbur bo'ladi. Xizmat davomida turmush o'rtog'i ko'plab oilaviy vazifalarni mustaqil bajarishga o'rgangan bo'lishi mumkin. Harbiy xizmatchining qaytishi esa oilaviy rollar, mas'uliyat va qaror qabul qilish tizimining qayta taqsimlanishini talab qiladi. Agar bu jarayon konstruktiv kommunikatsiya asosida kechsa, oila reintegratsiyaning eng kuchli psixologik resursiga aylanadi. Aks holda, oilaviy ziddiyatlar, emotsional sovuqlik va o'zaro tushunmovchilik reintegratsiya qiyinchiliklarini kuchaytirishi mumkin.

Farzandlar soni va ota-onalik funksiyasi ham muhim psixologik omil hisoblanadi.

Farzandlarning mavjudligi faxriy uchun hayot mazmuni, mas'uliyat va kelajakka yo'naltirilgan motivatsiya manbai bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ko'p farzandli oilalarda iqtisodiy bosim, tarbiyaviy mas'uliyat va oilaviy ehtiyojlarning ortishi reintegratsiya jarayonida qo'shimcha stress omiliga aylanishi ehtimoli ham mavjud. Demak, farzandlar soni reintegratsiyada biryozlama emas, balki ikki tomonlama psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanishi lozim.

Fuqarolik hayotiga qaytgan harbiy xizmatchi uchun kasbiy bandlik reintegratsiyaning asosiy indekslaridan biridir. Xorijiy tadqiqotlarda ish bilan ta'minlanish, kasbiy qayta tayyorlanish, fuqarolik mehnat bozoriga moslashish va iqtisodiy mustaqillik faxriylarning psixologik farovonligi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlanadi.

Kasbiy faoliyat shaxsga nafaqat moddiy barqarorlik, balki yangi ijtimoiy maqom, kun tartibi, o'zini foydali his qilish, jamiyatga daxldorlik va kelajakka ishonch beradi. Ishsizlik, kasbiy noaniqlik yoki harbiy tajribani fuqarolik kasbiga moslashtira olmaslik esa o'z-o'zini baholashning pasayishi, frustratsiya, oilaviy bosim va ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin.

Shu sababli reintegratsiya indekslarining kasbiy korrelyatlari sifatida ishga joylashish darajasi, kasbiy qoniqish, mehnat bozoriga moslashuv, kasbiy identifikatsiya va iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini ajratish mumkin. Harbiy xizmat davomida shakllangan intizom, mas'uliyat, jamoaviylik va xavf sharoitida qaror qabul qilish ko'nikmalari fuqarolik kasbiy faoliyatiga to'g'ri integratsiya qilinsa, faxriylarda yuqori kasbiy samaradorlik yuzaga keladi.

Reintegratsiyaning eng murakkab psixologik korrelyatlaridan biri identiklik transformatsiyasidir. Harbiy xizmat shaxsda kuchli kasbiy va ijtimoiy identiklikni shakllantiradi. “Men harbiyman”, “men xizmatdaman”, “men jamoa va Vatan oldida mas'ulman” kabi ichki pozitsiyalar shaxsning hayotiy mazmuni, xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga chuqur singib ketadi.

Rezervga bo'shatilgandan keyin ushbu identiklik fuqarolik hayoti talablariga mos ravishda qayta tashkil etilishi lozim. Harbiy identiklikning saqlanishi ayrim hollarda ijobiy resurs bo'lishi mumkin: u intizom, mas'uliyat, iroda, vatanparvarlik va ijtimoiy burch hissini mustahkamlaydi.

Biroq harbiy identiklik fuqarolik rollarini qabul qilishga to'sqinlik qilsa, identiklik konflikti yuzaga keladi.

Xorijiy tadqiqotlarda identiklik konflikti reintegratsiya qiyinchiliklarining muhim omili sifatida baholanadi. Bunday holatda shaxs o'zini harbiy tizimdan tashqarida foydasiz, jamiyatda esa begona his qilishi mumkin. Fuqarolik identifikatsiyasining shakllanishi esa shaxsga yangi ijtimoiy rol, yangi kasbiy maqsad va yangi hayotiy mazmun beradi. Shu bois reintegratsiya dasturlarida harbiy tajribani inkor etish emas, balki uni fuqarolik hayotiga konstruktiv integratsiya qilish muhim hisoblanadi.

Harbiy xizmatdan keyingi hayotdagi o'zgarishlar kuchli stress manbai bo'lishi mumkin.

Yangi kasb, oilaviy rollarning o'zgarishi, iqtisodiy ehtiyojlar, ijtimoiy muhitga moslashish, xizmatdoshlar jamoasidan uzoqlashish va kelajak noaniqligi faxriylarning emotsional holatiga ta'sir qiladi. Shu sababli stressga bardoshlilik reintegratsiya indekslarining muhim psixologik korrelyati sifatida ajralib turadi.

Stressga bardoshlilik yuqori bo'lgan shaxslar murakkab vaziyatlarni tahdid sifatida emas, balki hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifa sifatida qabul qiladilar. Ular o'z emotsiyalarini boshqarish, resurslarni safarbar etish, ijtimoiy yordam so'rash va muammoga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tanlashga moyil bo'ladilar. Emotsional barqarorlik esa tashvish, depressiv reaksiya, g'azab, irritabilitet va frustratsion xulqning oldini olishda muhim himoya omili vazifasini bajaradi.

Xorijiy tadqiqotlarda koping-strategiyalar faxriylarning reintegratsiya jarayonidagi xulq-atvorini tushuntiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilinadi. Muammoni hal qilishga yo'naltirilgan koping, ijtimoiy yordam izlash, vaziyatni qayta baholash va faol moslashuv strategiyalari reintegratsiya indekslarini oshiradi. Aksincha, qochish, inkor etish, passiv kutish, ijtimoiy chekinish va emotsional portlashga asoslangan strategiyalar reintegratsiya qiyinchiliklarini kuchaytiradi.

Konstruktiv koping faxriylarga yangi hayotiy vaziyatlarda faol pozitsiyani saqlash imkonini beradi. Bu strategiyalar kasbiy muammolarni hal qilish, oilaviy ziddiyatlarni yumshatish, psixologik yordamdan foydalanish va fuqarolik jamiyati bilan aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois reintegratsiya indekslarini baholashda koping xulq-atvori alohida diagnostik mezon sifatida ko'rilishi lozim.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi indekslarining quyidagi psixosotsial korrelyatlarini ajratish mumkin:

Birinchi guruh individual-psixologik korrelyatlar. Unga psixologik moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, o'zini o'zi boshqarish, konstruktiv koping va hayot mazmuni kiradi.

Ikkinchi guruh oilaviy korrelyatlar. Unga nikohdan qoniqish, oilaviy birdamlik, turmush o'rtog'ining qo'llab-quvvatlashi, farzandlar bilan munosabatlar sifati va oilaviy rollarning muvozanati kiradi.

Uchinchi guruh ijtimoiy korrelyatlar. Unga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy kapital, jamiyatga mansublik hissi, mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar va ijtimoiy institutlarga ishonch kiradi.

To'rtinchi guruh kasbiy-iqtisodiy korrelyatlar. Unga ish bilan bandlik, kasbiy qayta tayyorlanish, iqtisodiy barqarorlik, kasbiy qoniqish va fuqarolik mehnat bozoriga moslashuv kiradi.

Beshinchi guruh identifikatsion-ma'naviy korrelyatlar. Unga harbiy identiklik, fuqarolik identifikatsiyasi, identiklik konflikti, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar transformatsiyasi kiradi.

Mazkur model reintegratsiyani bir omilli emas, balki ko'p darajali, tizimli va dinamik psixosotsial jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Muhokama. Xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi nafaqat ruhiy salomatlik yoki individual moslashuv masalasi, balki shaxsning butun hayotiy tizimini qayta tashkil etish jarayonidir. Harbiy xizmatdan keyingi hayotda shaxs bir vaqtning o'zida yangi oilaviy, kasbiy, ijtimoiy va fuqarolik rollarini egallaydi. Bu jarayonning muvaffaqiyati ichki psixologik resurslar va tashqi ijtimoiy resurslarning uyg'unlashuviga bog'liq.

Reintegratsiya indekslarining yuqori darajasi psixologik moslashuvchanlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy barqarorlik, kasbiy bandlik va fuqarolik identifikatsiyasining shakllanganligi bilan izohlanadi. Past reintegratsiya esa ijtimoiy izolyatsiya, identiklik konflikti, ishsizlik, oilaviy ziddiyat, stressga chidamsizlik va destruktiv koping strategiyalari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mazkur holat dissertatsion tadqiqotlar uchun muhim metodologik xulosa beradi: reintegratsiyani baholashda faqat bitta indikator bilan cheklanish yetarli emas. Uni kompleks psixosotsial indekslar tizimi orqali o'rganish zarur. Bunda shaxsning individual psixologik holati, oilaviy muhiti, ijtimoiy tarmoqlari, kasbiy maqomi va identifikatsion transformatsiyasi birgalikda tahlil qilinishi lozim.

Xulosa. Xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi ko'p darajali psixosotsial jarayon bo'lib, u individual, oilaviy, kasbiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri orqali shakllanadi.

2. Reintegratsiya indekslarining asosiy psixologik korrelyatlari sifatida psixologik moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, o'zini o'zi boshqarish va konstruktiv koping strategiyalari namoyon bo'ladi.

3. Oilaviy qo'llab-quvvatlash, nikoh barqarorligi, turmush o'rtog'i bilan munosabat sifati va farzandlar bilan emotsional yaqinlik reintegratsiyaning muhim himoya omillari hisoblanadi.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy kapital va jamiyatga mansublik hissi faxriylarning fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

5. Kasbiy bandlik va iqtisodiy barqarorlik reintegratsiyaning muhim indeksleri bo'lib, ular shaxsning o'z-o'zini baholashi, hayotdan qoniqishi va kelajakka ishonchini mustahkamlaydi.

6. Harbiy identiklikdan fuqarolik identifikatsiyasiga konstruktiv o'tish reintegratsiyaning markaziy psixologik vazifasi hisoblanadi.

7. Reintegratsiya indekslarini baholashda ekologik, tizimli va transdiagnostik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elnitsky C.A., Kilmer R.P., Besterman-Dahan K., et al. Military Service Member and Faxriy Reintegration: A Critical Review and Adapted Ecological Model. *Frontiers in Psychology*, 2017.
2. Romaniuk M., Kidd C. The Psychological Adjustment Experience of Reintegration Following Discharge from Military Service: A Systematic Review. *Journal of Military and Faxriys' Health*, 2018.
3. Romaniuk M., et al. Assessing Psychological Adjustment and Cultural Reintegration to Civilian Life. *BMC Psychology*, 2020.
4. Rattray N.A., et al. The Association Between Reintegration, Perceptions of Health and Well-being Outcomes among Faxriys. *Journal of Faxriys Studies*, 2023.
5. Creech S.K., Hadley W., Borsari B. The Impact of Military Deployment and Reintegration on Children and Parenting: A Systematic Review. *Professional Psychology: Research and Practice*, 2014.
6. Gewirtz A.H., et al. Promoting Parenting to Support Reintegrating Military Families. *Psychological Services*, 2014.
7. The Experience of Reintegration for Military Families / by Michelle D. Sherman, Ph.D., Kyle R. Hawkey, M.Ed., and Lynne M. Borden, Ph.D., Department of Family Social Sciences, Center for Research and Outreach, University of Minnesota. October 1, 2015 NCFR Report. <https://www.ncfr.org/ncfr-report/focus/family-focus-conflict-violence-and-war/experience-reintegration-military-families>